

**AKSILOGIYA HAQIDA UMUMIY NAZARIYA VA QADRIYATLARNING  
FALSAVIY,IJTIMOY VA MADANIY ASOSLARI****Bekmurodova Xadicha****Meliboyeva Mohidil****Bozorova Dildora****Ro'ziyeva Fotima***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich Filologiya fakulteti talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aksiologiyaning hayotimizdagi o'rnini yuksaltirish, xususan uni yoshlar hayotida taqbiq qilish bundan tashqari uning falsaviy, ijtimoiy va madaniy tamoyillarini yoritib berilgan. Hozirgi kunda aksiologiyaning mavqeyi pasayotganligi tufayli uni qaysi omillar sababi hayotimizga taqbiq qilish to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit So'zlar:** aksiologiya, qadriyatlar nazariyasi, ijtimoiy qadriyatlar, falsafiy asoslari, etika va aksiologiya, qadriyatlarning evolyutsiyasi, milliy madaniyat, ijtimoiy ong, qadriyatlarning ijtimoiy roli, globalizatsiya va qadriyatlar, zamonaviy qadriyatlar.

**Annotation:** This article discusses the importance of axiology in our lives, especially its application in the lives of young people, as well as its philosophical, social and cultural principles. Due to the current decline in the status of axiology, it is considered what factors should be considered in its application in our lives.

**Keywords:** axiology, value theory, social values, philosophical foundations, ethics and axiology, evolution of values, national culture, social consciousness, social role of values, globalization and values, modern values.

**Аннотация:** В данной статье освещается пропаганда места аксиологии в нашей жизни, особенности ее применения в жизни молодежи, а также ее философские, социальные и культурные принципы. В связи с падением статуса аксиологии в настоящее время задумались о причинах, по которым ее следует применять в нашей жизни.

**Ключевые Слова:** аксиология, теория ценностей, социальные ценности, философские основы, этика и аксиология, эволюция ценностей, национальная культура, общественное сознание, социальная роль ценностей, глобализация и ценности, современные ценности.

Aksiologiya (qadriyatlar haqidagi ta'limot) falsafaning qadriyatlar va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'rganuvchi soha bo'lib, uning maxsus bir ta'limot sifatida dunyoga kelishi XX asrning boshlarida shakllangan bo'lsa-da qadriyatlar haqida qarashlar qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lgan. Misol tariqasida shuni aytish

mumkinki Moniy,Zardusht,Platon va Suqrot uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borlining bosh mezonlari hisoblaganlar.

Aksiologiyaning alohida fan sifatida vujudga kelishiga turtki bo'lgan asosiy omillardan biri bu dunyoda ilm-fanning jadal rivoji,davlatlarning shakllanishi va global ijtimoiy o'zgarishlar qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatishi va natijada qadriyatlar tabiatini chuqurroq o'rganish zaruratini keltirib chiqardi va natijada falsafa fanida alohida bir "Aksiologiya" deb nomlanuvchi soha vujudga keldi.Aksiologiyaning falsafaviy asoslari qadriyatlarning mazmuni va ularning inson hayotidagi o'rnini belgilaydi.Bu jihatlar quyidagi yondashuvlar orqali o'rganiladi:

Metafizika-qadriyatlarning mohiyati va ular mavjudlikning asosiy qismi ekanligi haqida.

Epistemologiya-qadriyatlar qanday bilib olinadi va ularga qanday baho berilishi haqida.

Ontologiya-qadriyatlarning mavjudlik shakllari va ularning obyektivlik darajasi haqida.

Qadriyatlar ijtimoiylashuv jarayoni orqali ajdoddan avlodga o'tadi,buning ta'sirida jamiyatda tarbiya,oilaviy hamda madaniy va diniy udumlar rivojlanadi,Masalan bolalikdan rivojlangan adolat,halollik va mehnatsevarlik qadriyatlari odamning ijtimoiy hayotida namoyon bo'ladi.Shuningdek,aksiologiya tomir otgan jamiyatda faqatgina qadriyatlar emas,balki etika ham yuqori tazrda rivojlanadi.Tinchlik,inson huquqlari,erkinlik,sog'lik va adolat kabi tushunchalar etika bilan birgalikda rivojlanadi.

Aksiologiyani targ'ib etishda madaniyat-qadriyatlarning manbai yetakchilik qiladi.Har bir jamiyatdagi madaniyat uning aksiologiya tizimini ko'rsatib beradi va bu bilan shuni aytish mumkinki,aksiologiya madaniyatning bir qismi bo'lib,odamlarning madaniy tizimini belgilab beradi.Ammo hozirgi raqamli iqtisodiyot davrida globalizatsiyaning madaniyatga ta'siri hamda globalizatsiya jarayonida qadriyatlarning bir-biri to'qnashuvi oqibatida ayrim milliy qadriyatlarning yo'qolishiga olib keladi.Bu jarayon ijobiy (yangi va zamovaviy qadriyatlarning tug'lishi) salbiy(milliy madaniyatning kamayishi) tomonlari mavjud.Zamonaviy madaniyatdagi salbiy ta'sirlar keksalardan ko'ra yosh avlodga o'zining ta'sirini ko'rsatadi,biroq bu omil sababli yoshlarimiz ongida an'anaviy aksiologiyani o'zlari bilib-bilmagan holda oyoqosti qilishlari mumkin.Bu esa jismoniy shaxsdan tortib yuridik shaxslarni ham o'ylantiradi:Shu o'rinda mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning quyidagi satrlarini misol tariqasida keltririshimiz mumkin:

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odob –axloqi,yurish-turushi,bir so'z bilan aytganda,dunyoqarashi bilan bog'liq.Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapdi.Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar.Mayli,yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin.Lekin ayni paytda o'zligini ham unitmasin.Biz kimmiz,qanday ulug` zotlarning

avlodimiz ,degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya ,tarbiya, va faqat tarbiya hisobidan”.

Yuqorida ta'kidlangan “tarbiya” faqat odob-axloq va qoidalardan iborat emas, balki bu tarbiya o'z ichiga aksiologiyani qamrab oladi.

Yana bir muhim jihatdan biri shuki, qadriyatlar nazariyasini tadbiiq qilish uchun quyidagi omillar yetakchi rollarni o'ynaydi:

Madaniy omillar- insonlarning ust-boshi, yegan-ichgani, ko'rgan-kechirganlar va borgan joylarida milliylikni oz miqdorda bo'lsa ham tadbiiq qilsa va uni jamiyatga o'zi bilan olib kirsas, qolgan shaxslar undan o'zlari bilmagan holda o'zlarining hayotida sinab ko'rishadi va uning oti “fashion” deb ataladi. Birgina mana shu “fashion” orqali xorijiy tillarni o'rganayotgan yigit-qizlar atlas-adras yoinki milliy liboslardan voz kechgan holda “jinsi” matolaridan libos kiyishi yoki “I love London/Russia/Germany etc) kiyimlarni kiyishi aksiologiyaning mavqeyi pasayishiga bir misoldir.

Milliy qadriyatlarni to'liqligicha hayotimizga tatbiiq qilishimiz yo harakat qilishimiz muhimdir va bu orqali jamiyatga oz bo'lsa ham yordam ko'rsatgan hisoblanamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Zamaliyeva S.A. Osnovnye kontsepty ucheniya V. Frankle o cheloveke. Sovremennaya problem nauki I obrazivoniya, 2012, No 1
3. Falsafa fanidan o'quv-uslubiy majmua.
4. Erkin Yusupov “Falsafa”
5. J. Tulenov, B. G'ofurov “Falsafa”